



## Ingliz va o'zbek tilshunosligida stilistika va stil atamalari xususida

*Xolmatov Shaxriyor Zoxidjon o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi*

*Xolmatova Dildoraxon Musojon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng, o'zbek tilshunosligida juda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat qonunchilik ishlari, hujjatlar, o'quv qo'llanma, darsliklar adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda asta-sekinlik bilan izga tushirildi. Tilshunoslik sohasida esa hali hanuz bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjuddir. Shulardan biri tilshunoslikning kam tadqiq etilgan bo'limlaridan biri stilistika bo'limidir, ammo shu kunga qadar bu sohada ham salmoqli ilmiy izlanishlar olib borildi. Biz ham ushbu maqola orqali stilistika va stil tushunchalarini o'zbek va ingliz tillarida qiyoslab tushuntirib o'tishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Stilistika, Stil, uslubiyat, uslub, nutq uslublari, nutq stillari

Stilistika, shuningdek, lingvostilistika deb ham ataladi, umumiy tilshunoslikning yangi tarmoqlaridan biri bo'lib, til va badiiy adabiyot tilini o'rganadigan fandır. Stil atamasi esa uning bir bo'lagidir. Dastlab, stilistika so'zining kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak. Bu so'z turli manbalarda lotin tilidan yoki fransuz tilidan olinganli keltirilib o'tiladi, lekin aksariyat adabiyotlarda<sup>1</sup> uning grekcha "stilos" so'zidan oligan bo'lib, "mum taxtachlarga yozish uchun mo'ljallangan bir tomoni uchli tayoqcha" degan ma'nolarni bildirilishi yoziladi.

Stilistika qadimdan Yunonistonda, so'ng Rimda notiqlik san'ati zamirida rivojlangan bo'lib, V-VI asrlarda bu san'at dominant darajasiga ko'tarilgan edi. Notiqlik, yozuvchi va so'zlovchilar chiroyli nutqda gapirishlari uchun qoidalar va strategiyalar to'plamidan iborat edi. Holbuki, ko'p asrlar davomida o'zining zalvorini G'arb va Sharqda birdek yo'qotmagan bu san'at XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida deyarli tugadi va tilshunoslikda stilistika bo'lim sifatida XX asrning ikkinchi yarmida o'z ichiga ko'plab maqolalar, kitoblar, nashrlar olgan holda bilan kirib keldi. Mashhur rus tadqiqotchilaridan stilistika fani rivojiga o'zining "Closing Statement: Linguistics and Poetics" (Yakunlovchi fikr: Tilshunoslik va Poetika) kitobi bilan katta hissa qo'shgan Roman Jakobson edi. Buyuk Britaniyalik tanqidchilar, I.A. Richards va Villaim Empson, AQSHlik tilshunoslar Klins Bruks, Rene Vellek, Ostin Varren va boshqalar ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shdilar. 1930-yillarda lingvistik tilshunoslik ana'nasiga britaniyalik tilshunoslar asos soldilar va bu an'ana "British Contextualism" (Britanacha Kontekstualizmi) deb nomlandi. Bu an'ananing tarafdorlari Jon Rupert Fi, M. Halliday va John Sinkleyrlar edi. So'ng esa stilistikaning rivojlanish

<sup>1</sup> Saodat Sultonsaidova, O'lmas Sharipova. O'zbek tili stilistikasi: - T.: "YURIST-MEDIA MARKAZI" nashriyoti, 2009; Iminov M, Nu'monov T., Boboxonova D. O'zbek tili uslubiyati masalalari: -"Namangan" nashriyoti, 2007. 4-bet; Практикум по стилистике английского языка. Seminars in Stylistics : учеб. пособие / В.А. Кухаренко. — М. : Флинта : Наука, 2009. — 184 с.6-bet; Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1985.6-bet; A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'g'urov, X.Rustamov O'zbek tili stilistikasi". ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1983,6-bet;



bosqichida “Russian Formalism” (Rus Formalizmi) kirib keldi. Bu guruh oʻz ichiga lingvistlar, adabiy tanqidchilar va psixologlarni qamrab olgandi<sup>2</sup>. Shunday qilib, bu soha sekin-astalik bilan Gʻarbda rivojlandi.

Oʻzbek tilshunosligida A.Shomaqsudov, R. Qongʻurov oʻzbek stilistikasi boʻyicha kitoblar, darsliklar nashr ettirdilar, L.Abdullayeva, E.Qilichevlarning ushbu sohada olib borgan ishlari salmoqlikdir. T.Qurbonov, D. Boboxonava, M.Mukkaramov stillar boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borib, doktorlik dissertatsiyasini yoqladilar. M.Iminov, T.Nuʼmonov, D.Boboxonova “Oʻzbek tili uslubiyati masalalari” nomli oʻquv uslubiy qoʻllanmasida stilatika, stil, uslub, uslubiyat masalalarini ancha keng yoritib berdilar. Stilatika boʻyicha oʻquv darsliklar ancha kamligi tufayli, bu sohada rivojlanish nisbatan yurtimizda sekinlik bilan bordi. Lekin 1950-yillardan soʻng, stilistka, stil atamaları boʻyicha oʻzbek tilshunoslari oʻzlarining ilmiy ishlari bilan fanning istiqbolli rivojlanishi zamin yaratdilar. Dunyo va oʻzbek tilshunoslari tomonidan ushbu terminga turlicha yondashuvda taʼriflar beriladi.<sup>3</sup> Tilshunos E.Qilichevning yozishicha stilatika “fikr va emotsiyalarni bildirishda tilning turli vositalaridan saylab foydalanish yoʻllarini oʻrgatadi”<sup>4</sup>, “Oʻzbek tili stilistikasi asoslari” kitobida M.Xalilovning fikricha, “stilatika birinchi maʼnosida alohida fanni, sohani bildiradi. Bundan tashqari badiiy asar tili va uning ifoda vositalari haqidagi boʻlim nomi sifatida ham talqin qilingan”,<sup>5</sup> A.Shomaqsudov va boshqalar muallifligidagi “Oʻzbek tili stilistikasi” qoʻllanmasida “stilatika har biri oʻzi muayyan stilistik belgilarga ega boʻlgan stillarni oʻrganadi” deya taʼrif beriladi.<sup>6</sup>

Ingliz tilshunosligida ham stilatika atamasi va ushbu soha boʻyicha koʻplab mulohazalar, taʼriflar va izohlar mavjud boʻlib, ular til nuqtai nazari boʻyicha xilma-xillikka egadir. Xususan, ingliz tilshunosi Lukasning fikricha “stilatika nasrda tildan samarali foydalanish yoki his-tugʻyularni uygʻotish demakdir”. Ingliz tadqiqotchisi David Kristalning nuqtai nazaridan oladigan boʻlsak, “Stilatika tilshunoslikning bir qismi sifatida til variantlarining maʼlum bir aspektlarini oʻrganadigan boʻlimdir”, G.N.Lich, mashhur tilshunoslardan biri, “stilatika, adabiyotga lingvistik yondashuvdir, u til va uning badiiy funksiyasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushuntiradigan aloqa” deya taʼrif beradilar.<sup>7</sup> Tomas Keyn “Stilatika yozuvchining lingvistik tanlovini oʻrganadi, fikr va his-tuygʻularni taʼsirli

<sup>2</sup> PRASANNATA RAMTIRTHE. STYLE AND STYLISTICS: AN OVERVIEW // Research Scholar. Savitribai Phule Pune University Pune. (MS) INDIA.2017

<sup>3</sup> Практикум по стилистике английского языка. = A Manual of English Stylistics : [учебное пособие] / М.П. Ивашкин, В.В. Сдобников, А.В. Селяев. — М.: АСТ: Восток-Запад, 2005. — 101, [11] с.3-бет; Практикум по стилистике английского языка. Seminars in Stylistics : учеб. пособие / В.А. Кухаренко. — М. : Флинта : Наука, 2009. — 184 с.6-бет; В.А. Зайцева. ЭЛЕКТРОННЫЙ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ КОМПЛЕКС ПО УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЕ «СТИЛИСТИКА» ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНОСТИ «СОВРЕМЕННЫЕ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ. Минск,2007; Saodat Sultonsaidova, Oʻlmas Sharipova. Oʻzbek tili stilistikasi: - T.: “YURIST-MEDIA MARKAZI” nashriyoti, 2009; Iminov M., Nuʼmonov T., Boboxonova D. Oʻzbek tili uslubiyati masalalari: -“Namangan” nashriyoti, 2007.; Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1985.6-бет; A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qoʻgʻurov, X.Rustamov Oʻzbek tili stilistikasi”. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1983,6-бет; Dr. Mohammad Tariq. Style, stylistics and stylistic analysis: A re-evaluation of the modern-day rhetorics of literary discourse // International Journal of English Research. Volume 4; Issue 2; March 2018; Page No. 46-50; PRASANNATA RAMTIRTHE. STYLE AND STYLISTICS: AN OVERVIEW // Research Scholar. Savitribai Phule Pune University Pune. (MS) INDIA.2017

<sup>4</sup> Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1985

<sup>5</sup> M.Xalilova. “Oʻzbek tili stilistikasi asoslari”//oʻquv qoʻllanma.Fargʻona nashriyoti,2009-yil,-104 bet.6-бет

<sup>6</sup> A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qoʻgʻurov, X.Rustamov. Oʻzbek tili stilistikasi”. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1983



tarzda ifoda etishga yordam beradi” deydi. Yuqorida keltirilgan ta’riflarni o’zbek va ingliz stilistikasi asnosida qiyoslaydigan bo’lsak, o’zbek tilshunosligida stilistika atamasi orqali ko’proq alohida sohani bildirilishiga urg’u berilsa, ingliz tilshunosligida til va uning badiiy funksiyasini turli variantlar asosida o’rganilishi tushuniladi. Har ikkala qiyoslanayotgan tilda bu ta’riflar stilistikaning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Berilgan har bir ta’rifning o’z individual xususiyati mavjud bo’lib, barchasi umumlashib, stilistika alohida fan sifatida, til va uning aspektlarini badiiy jihatdan turli variantlar asosida o’rganilishi xulosalanmoqda.

Shu o’rinda savol paydo bo’lishi tabiiy, nega biz stilistika bilan shug’ullanishimiz zarur? Ingliz olimi Paul Simpson shunday deydi: “Stilistika bilan shug’ullanish bu tilni tadqiq etish, aniqroq qilib aytganda, tildan foydalanishda yaratuvchanlikni o’rganishdir. Shuning uchun stilistika bizning til haqida o’ylash salohiyatimizni boyitadi” deb aytadi.<sup>8</sup> Ya’ni ushbu ta’rifdan oydinlashayotgan xulosa; stilistika orqali tilning turli aspektlarini, muallifning munosabatini, uning asarda bildirgan his-tuyg’ularini tahlil qilishimiz, firka-mulohazalarimizni tilning eksperissiv tomonlari orqali turli stillar yordamida ifoda eta olish qobiliyatimizni ishga solishimiz mumkinligi yoritiladi. O’rganish obyekti sifatida, stilistikani aniqlash va tadqiqot sohasini belgilshda muammolar kelib chiqadi. 1. Ba’zi tilshunos nazariyotchilarning fikricha, stilistika adabiyot yoki tilshunoslik bo’limiga kiritilishi kerakligi aytiladi. 2. Boshqa nuqtai nazardan, H.G.Viddovson fanlararo xususiyatga ega bo’lgan ta’rifini ta’kidlaydi, “stilistika adabiy tanqid va tilshunoslik o’rtasidagi va chegaradagi fan” deydi.<sup>9</sup> 3. Uchinchi tarafdin esa, bir-biriga bog’liq bo’lgan fanlar orasida avtonomlik mavjudligi, lingvistik tahlildan foydalangan holda adabiy matnlarni tahlil qilish yondashuvi, tilshunos Short tomonidan taklif etiladi. (Bu fikrlardan shuni aytishimiz mumkinki, stilistika:

- a) birinchi navbatda, tilshunoslikning bo’limi sifatida adabiy matnlarning xususiyatlarini o’rganadi;
- b) ba’zan adabiyotshunoslikning bo’limi sifatida qaralishi mumkin, qachonki, lingvistik metodlarda tayangan holda bo’lsagina;
- d) Ham tilshunoslik ham adabiyotshunoslik metodlaridan foydalanganda, Stilistikani avtonom soha deb atash mumkin.

Stilistikaning fan sifatidagi asl mohiyatini aniqlash uchun stil nima degan savolga biroz to’xtalib o’tish zarur va ularning bir-biridan farqlarini anglash lozim. **Stil** atamasi bir necha xil ma’nalarni anglatishini quyidagi tahlildan ko’rib chiqamiz:

1. Biror millatning xarakterli ko’rinishi yoki arxitektura sohasida ishlatiladi. *O’zbek milliy san’ati, sharqona stil,*
2. Stil so’zi yozuvchi yoki ijodkor til xususiyatlarini o’rganuvchi stil sifatida, masalan, *A.Avloniy yozish stili, T.Farog’iy stili kabi.*
3. Yozuvchi, shoirlarning ma’lum davrda yashab ijod etganliklari yoki ma’lum adabiy janrlarga nisbatan ishlatiladi. *Romantizm stili, doston stili.*
4. Stil, ma’lum turdagi texnikalar majmui, ish faoliyat, xatti-harakatni bildiradi. *Bu harakat mutlaqo uning stiliga mos emas.*<sup>10</sup> (Словарь русского языка. С.И Ожегов)

<sup>8</sup> Simpson, Paul (2004) *Stylistics*, London/New York, Routledge

<sup>9</sup> Dr. Alfadil Altahir Alfadil

<sup>10</sup> Словарь русского языка. С.И Ожегов.626-bet





5. Nutq amaliyotining turli sharoitlarida muayyan g'oyalar, fikrlarni ifodalash uchun milliy til vositalaridan foydalanish usullari to'plami. *Badiiy adabiyot stili*<sup>11</sup> (Словарь русского языка. С.И Ожегов)
6. Sintaksis va umuman adabiy til normalariga mos nutq qurulishi. *Sodda, ravon stil, dag'al, ga'liz stil, stil kamchiliklari*.<sup>12</sup> (Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ)

Demak, keltirilgan ta'riflar bo'yicha stil atamasi juda keng ma'nolarni bildiradi va ulardan adabiy sohaga tegishli ma'nolari ya'ni 2-3-5-6-izohlar stilistika bo'limining o'rganish obyekti hisoblanadi. Stil so'zi shu qadar ko'p ma'nolarni anglatadiki, u noaniqlik uchun zamin bo'lib qoldi. Quyida stilga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqsak, bu chalkashliklarga ma'lum miqdorda barham bergan bo'lamiz.

“Stil-bu aniq his-tuyg'ularni, fikrlarni bildiradigan til sifati yoki muallifga xos bo'lgan his-tuyg'ular va fikrlar tizimi” deb ta'rif beradi J. Midlton. “Stil va Stilistikaning hozirgi ta'rifi shundan iboratki, alohida jumlar chegarasidan chiqadigan yoki kengayishi mumkin bo'lgan tuzilmalar, ketma-ketliklar, namunalar stilni belgilaydi, ularni o'rganish esa Stilistika” deydi Archibald A.Hills. Stilning eng tarqalgan ta'rifi Seymour Chetmen tomonidan ifodalangan “Stil-bu lingvistik imkoniyatlar orasida individual tanlov yoki tanlov imkoniyatlari mahsulidir”. Stilga ta'rifni biroz kengroq ko'rinishda Verner Vinter beradi, “Stilni tilning ixtiyoriy xususiyatlari inventaridan takroriy tanlab olish namunasi bilan tavsiflanadi deyish mumkin. Unda har xil turdagi tanlovlarni topish mumkin: ixtiyoriy elementni to'liq chiqarib tashlash, boshqa joyda ixtiyoriy xususiyatni majburiy kiritish, raqobatdosh xususiyatlarni to'liq yo'q qilmasdan, ma'lum bir variantni kiritishning turli darajalari.”<sup>13</sup> Stil haqida ta'riflar yana ham ko'proq keltirshimiz mumkin, biroq, bu bizni faqat ta'riflar o'qish bilan cheklab qo'yib, asosiy maqsadimizdan biroz chetlashimiz mumkin. Stil haqida keltirilgan ta'riflarning birlashtiradigan umumiylik va ular o'rtasida ajralmas muhimlik borligi rus tilshunosi I.R Galperin tomonidan berildi, “Stil- bu bir muallifni boshqasidan yoki boshqa kichik sinf a'zolaridan bir kichik sinf a'zolarini ajratib turadigan lekin ularning barchasi bir xil umumiy sinfga tegishli bo'lgan xususiyatlar to'plamidir”, deb ta'rif beradi.<sup>14</sup>

Stilistika va Stil konseptlarini tilshunos olimlarning ta'riflaridan va fikr, mulohazalarimizdan kelib chiqib bir-biridan farqlab xulosa qilsak:

T/r	Stilistika	Stil
1	Tilshunosilning bo'limi sifatida	Stilistika bo'limining ajralmas qismi
2	umumiylik	Xususiylik
3	Til va uning funksiyasini badiiy jihatdan o'rganadi	Muloqotda ma'lum bir maqsadga xizmat qiluvchi o'zaro bog'langan til vositalari sifatida
4	Tasviriylik, ifodalilik, hissiyot, ifodali vositalar va stilistik vositalar	Matn turi yoki aniq matnning o'ziga xos xususiyatlar to'plami
5	Lingvisiyik birliklarning ekspressiv	Lingvistik tanlov, yoki individual tanlov.

<sup>11</sup> Словарь русского языка. Ко'rsatilgan adabiyot


<sup>12</sup> Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ. ТОШКЕНТ «УҚИТУВЧИ» 1985.6-bet

<sup>13</sup> И. Р. ГАЛЬПЕРИН СТИЛИСТИКА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА Москва «Высшая школа» 1981

<sup>14</sup> И. Р. ГАЛЬПЕРИН. Ко'rsatilgan adabiyot





	xususiyatlarini o'rganadi	Vaqtinchalik hodisa; Vaziyat; Individuallik
6	Matnda yoki nutqda mavjud bolgan stillarni yoki stilistik vositlarni tahlil qilib o'rganadi	Muallif yoki yozuvchining til vositlaridan foydalanish tanlovi
 <b>individual foydalanish bilan cheklanmagan</b>		

Demak, Stil berilgan kontekstda tilning ma'lum bir shaxs tomonidan, ma'lum bir maqsad uchun qanday foydalanishni bildiradi, stilistika bilvosita yoki bevosita til va badiiy funksiya o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Ikkala termin ham bir-biriga bog'liq holda til va uning elementlarini o'rganishga xizmat qiladigan aloqa vositalaridir.

Hozirda biz tatbiq etgan terminlar stil va stilistika ingliz va o'zbek tillarida mavjud lekin, o'zbek tilida stil, uslub, uslubiyat, nutq stillari deb nomlanuvchi terminlar ham borki, bularni ingliz tilida uchramatmaymiz. Bu terminlar, uslub, uslubiyat, nutq uslublari ingliz tilida faqatgina birgina stil terminining atrofida birlashadi. "O'zbek tili stilistikasi asoslari" kitobi muallifi M.Xalilova Stilistika bilan uslubiyat atamasini farqlab qo'llash joizligini ta'kidlaydi, chunki ma'lum bir fanga doir bo'lgan so'zlardan foydalanishda ikkala so'zni almashtirib qo'llash uslubiy g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkinligi aytiladi. Masalan: *fe'l stilistikasi, olmosh stilistikasi, qo'shma gap stilistikasi* atamalarini o'rnida *fe'l uslubiyati, olmosh uslubiyati* atamalarini qo'llab bo'lmaydi deyiladi.<sup>15</sup> Nutq stillari va nutq uslublari atamaları ham ikkita atama ko'rinishida berilgan, lekin, bularning birining o'rnida ikkinchisini almashtirib ishlatish mumkinligi aytiladi. Og'zaki yoki yozma nutq jarayonida o'zbek tilida uslub, uslubiyat, stil so'zlarini qo'llashda kontekstdan kelib chiqqan holda ishlatamiz, biroq, ingliz tilida stil atamasini (uslub deb ham tarjima qilsak bo'laveradi) o'rinli joylarda ishlatishimiz mumkinki, o'zbek tili kabi uslubiy xatolik kelib chiqmaydi.

Bu fikrlardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilshunosligi ingliz tilshunosligiga qaraganda ancha murakkabroq va o'rganilishi kerak bo'lgan terminlar talaygina ekanligi oydinlashadi. Bu esa tilshunoslar oldidagi hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'g'urov, X.Rustamov. O'zbek tili stilistikasi". TOHIKEHT «УҚИТУВЧИ» 1983
2. Ожегов С. Словар русского языка. –Москва:., Русский язык, 1988
3. Dr. Mohammad Tariq. Style, stylistics and stylistic analysis: A re-evaluation of the modern-day rhetorics of literary discourse // International Journal of English Research. Volume 4; Issue 2; March 2018; Page No. 46-50;

<sup>15</sup> M.Xalilova "O'zbek tili stilistikasi asoslari"//o'quv qo'llanma.Farg'ona nashryoti,2009-yil,-104 bet.7-bet





4. Э. ҚИЛИЧЕВ. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ПРАКТИК СТИЛИСТИКАСИ. ТОШКЕНТ «УЎҚИТУВЧИ» 1985
5. В.А. Зайцева. ЭЛЕКТРОННЫЙ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ КОМПЛЕКС ПО УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЕ «СТИЛИСТИКА» ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНОСТИ «СОВРЕМЕННЫЕ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ. Минск,2007
6. Iminov M., Nu'monov T., Voboxonova D. O'zbek tili uslubiylati masalalari: -"Namangan" nashryoti, 2007
7. И. Р. ГАЛЬПЕРИН СТИЛИСТИКА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Москва. «Высшая школа» 1981
8. Ивашкин, В.В. Сдобников, А.В. Селяев. — М.: АСТ: Восток-Запад, 2005. — 101, [11] с.
9. M.Xalilova. "O'zbek tili stilistikasi asoslari"//o'quv qo'llanma.Farg'ona nashryoti,2009-yil,-104 bet.
10. Практикум по стилистике английского языка. Seminars in Stylistics : учеб. пособие / В.А. Кухаренко. — М. : Флинта : Наука, 2009. — 184 с.
11. PRASANANTA RAMTIRTHE. STYLE AND STYLISTICS: AN OVERVIEW // Research Scholar. Savitribai Phule Pune University Pune. (MS) INDIA.2017
12. Tayeva R.M., Orazbekova I.G Lectures on the English stylistics: educational manual. — Almaty: Kazakh University, 2014 — 100 p.
13. Х. ДОНИЁРОВ, Б. ЙЎЛДОШЕВ. АДАБИЙ ТИЛ ВА БАДИИЙ СТИЛ.- ТОШКЕНТ УЗБЕКИСТОН ССР «ФАН» НАШРИЁТИ, 1988

